

RAXIT: SABABLARI, OLDINI OLISH VA DAVOLASH USULLARI

Abdurahmonova Dilnoza

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti,
davolash ishi yo'nalishi, 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya; Ushbu maqolada raxit kasalligining kelib chiqish sabablari, patogenezi, klinik ko'rinishlari, oldini olish choralar va zamonaviy davolash usullari tahlil qilinadi. Ayniqsa, bolalik davrida uchraydigan D vitamini yetishmovchiligi asosida rivojlanadigan raxitning ahamiyati yoritilib, uni o'z vaqtida aniqlash va samarali davolashning muhim jihatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, profilaktika choralarining ahamiyati va xalqaro tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar; Raxit, D vitamini, kaltsiy, bolalik davri kasallikkari, profilaktika, davolash

Raxit – bu asosan bolalarda uchraydigan, suyaklarning to'liq mineralizatsiya qilinmasligi bilan kechadigan kasallik bo'lib, uning asosiy sababi D vitamini yetishmovchiligidir. Bu kasallik suyaklarning yumshab, deformatsiyaga uchrashi bilan xarakterlanadi. Dunyoda raxit hali ham ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Raxitning sabablari. D vitamini yetishmovchiligi - D vitamini quyosh nurlari yordamida terida sintezlanadi. Bolalarda yetarli darajada quyosh nurlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir bo'lмагanda, ularning terisida D vitamini sintezlanmaydi, natijada raxit yuzaga keladi. Noto'g'ri ovqatlanish emizikli bolalarda ona suti orqali D vitamini yetarlicha olinmasa yoki sun'iy ovqatlanishda D vitamini bilan boyitilmagan aralashmalar iste'mol qilinsa, bu ham raxitga sabab bo'ladi.

Ichki omillar Ba'zi genetik kasallikkilar, jigar va buyrak kasallikkari natijasida D vitamini faol shaklga aylana olmaydi yoki organizmda kaltsiy almashinushi buziladi. Patogenez va klinik ko'rinishlar Raxitda D vitamini yetishmovchiligi tufayli kaltsiy va fosfor singishi buziladi. Bu esa suyaklarning to'liq mineralizatsiyalanmasligiga, suyaklar yumshab, egilishiga olib keladi. Klinik belgilari: Bosh suyaklarining yumshoq bo'lishi (kraniotabes) «X» yoki «O» shaklida oyoq deformatsiyasi Ko'krak qafasi deformatsiyasi («raqamlı tasma») Tish chiqishning kechikishi Mushaklarning zaifligi, bezovtalik, terlash .

Raxitning oldini olish; Profilaktika choralariga quyidagilar kiradi: Homilador ayollarga D vitamini preparatlari berilishi Emizikli onalarning to'g'ri ovqatlanishi Bolalarni ertalabki quyosh nurlarida sayrga olib chiqish Sun'iy ovqatlanuvchi bolalarga D vitamini bilan boyitilgan formulalar berish Bolalarga hayotining dastlabki

oylari va yillarida muntazam ravishda D vitamini (500 IU/kun) berilishi .

Raxitni davolash; D vitamini bilan davolash Eng keng tarqalgan usul – ergokaltsiferol (D2) yoki xolekaltsiferol (D3) preparatlarini berishdir. Dastlabki bosqichda yuklama dozalari (2000–5000 IU/kun) belgilanadi, so‘ngra parvarishlovchi dozalarga o‘tiladi. Kaltsiy va fosfor moddalari Agar kaltsiy yetishmovchiligi mavjud bo‘lsa, D vitamini bilan birga kaltsiy preparatlari ham buyuriladi. Fizioterapiya Quyosh nurlari ta’sirini taqlid qiluvchi ultrabinafsha nurlar bilan davolash ham foydalidir.

Xalq tabobati Ba’zida mahalliy davolash usullari sifatida baliq yog‘i, quyoshda cho‘milish, vitaminli o‘simliklar infuziyalari qo‘llaniladi. Raxitning asoratlari Skelet deformatsiyasi (doimiy) Tishlarning noto‘g‘ri chiqishi Mushaklar atrofiyasi O‘pka kasalliklariga moyillik (ko‘krak qafasi deformatsiyasi tufayli) Psixomotor rivojlanishning kechikishi

Xulosa

Raxit – bolalar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, ammo o‘z vaqtida oldi olinadigan kasallikdir. Kasallikning oldini olish va erta bosqichda aniqlab, samarali davolash sog‘lom avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Tibbiyat xodimlari, ota-onalar va jamiyat bu borada yetarli bilim va amaliy tajribaga ega bo‘lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

1. Karimov A.Q., Toshpo‘latova Z. “Pediatriya asoslari”. – Toshkent: Tibbiyat, 2020.
2. Ю.А. Щербаков. «Детские болезни». – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019.
3. WHO. “Guideline: Vitamin D supplementation in infants”. World Health Organization, 2020.
4. Holick M.F. “Vitamin D deficiency”. N Engl J Med. 2007;357(3):266–281.
5. UNICEF. “Micronutrient deficiencies: combating rickets”. Global Report, 2021